

**O'zbek tilida so'z o'zlashtirish****(arab, xitoy, mog'ul, rus tillari misolida)****Mamarajabova Ozoda**

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Ergasheva D. A**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligiga turli tarixiy taraqqiyot davomida o'zga tillardan kirib kelgan so'zlar ayrim davrlar qamrovida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: So'z o'zlashtirish, xitoy tilidan o'zlashgan so'zlar, mog'ul tilidan o'zlashgan so'zlar, arabcha so'zlar.

O'zlashmalarning har qanday til taraqqiyoti va boyishi qonuniyatining manbalaridan biri ekanligi sir emas. O'zlashtirish jarayoni murakkab hodisa bo'lib, lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan chambarchas bog'langan. Ijtimoiy – siyosiy, tijoriy-iqtisodiy, diniy munosabatlar, madaniy aloqalar, bir tildan boshqa tilga qilinadigan adabiy tarjimalar va h.k. natijasida u yoki bu til lug'at tarkibida o'zlashmalar paydo bo'ladi. Tabiiy, ushbu hodisa boshqa qarindosh bo'lmagan tillardan kirgan katta miqdordagi o'zlashmalarga ega o'zbek adabiy tili uchun ham taalluqlidir.

Arablar VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrda O'rta Osiyoni bosib olganlaridan keyin yerli aholiga majburan islom dinini qabul qildirganlar. Islom bilan birga arab yozuvi ham ommalasha boshlagan. Maktab, madrasa, diniy va idora ishlarida arab tilining mavqei kuchaydi. Ana shu jihatdan yondashsak, arabcha so'z, shakl va iboralar o'zbek adabiy tiliga kitobiy til va qisman so'zlashuv tili orqali ham o'zlashgan.



Masalan:

Osori atiq iborasidagi atiq soʻzi ham antiqa bilan oʻzakdosh. Osor arabchadan olingan, asar, nishona maʼnosida. Osori atiq qadim dunyo nishonalari, qadimdan, antik dunyodan qolgan yodgorliklar, obidalardir.

Rabat (rabot, karvonsaroy) —oʻrta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tarhi toʻrtburchak, devorlarida minoralari boʻlgan. Dastlab (Islom dini tarqala boshlagan davrda) gʻoziylarga moʻljallab qurilgan maxsus bino.Keyinchalik yo'lovchilar, karvonlar to'xtab dam oladigan joy.

Malik (hukmdor) —islomgacha boʻlgan arab davlatlari (Fasoniylar, Lahmiylar)da hukmdor, Markaziy Arabistondagi qabilalar konfederatsiyasi va Jan. -Sharqiy Arabistonning baʼzi qabilalari boshliqlari, shuningdek, Xadramavt hududidagi kinda qabilasi zodagonlari vakili.

Siyosat (siyosat)—biror guruh, jamiyatni boshqarish jarayonidir. Ushbu jarayonda tegishli guruh vakillari ham qatnashishadi. Bu atama ostida koʻpincha hukumat faoliyati tushuniladi.Siyosat— davlatni boshqarish sanʼati. S. turli ijtimoiysiyosiy intlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaka va guruhlar oʻrtasidagi munosabatlar bilan bogʻliq.

Tib (tibbiyot) —kishilar sogʻligʻini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui.

Oʻzbek tilining moʻgʻul tili bilan aloqasi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Oʻzbek tilining lugʻat tarkibida XIII asrgacha va undan keyin kirib oʻzlashgan moʻgʻulcha soʻzlar mavjud:

Нарын < naryin - ingichka, tor, yuqa maʼnosidagi ot; ovqat nomi.

Oʻrda < oʻr - baland, tepalik, yuqorilik; oʻrda - balandlikka qurilgan saroy, qalʼa, qarorgoh. Oʻrdukent < oʻr+du+kent — tepalikka joylashgan shahar.



Uygʻur tili orqali xitoy tilidan oʻzlashgan barcha soʻzlar oʻzbek adabiy tili va shevalarida qoʻllanadi. Masalan: basay – ovqatga solinadigan koʻkat turi. Xitoy tilida baysay – koʻkat, karam (bay – oq, say – koʻkat, sabzavot). Bu soʻz uygʻur tilida bəsəy shaklida ishlatiladi. Qiyoslang, Dyatda basar – togʻ sarimsoq piyozi.

Say – turpdan tayyorlangan salat: Sayni juda boplabdi. Uygʻur tilida:

1) karam va qisman goʻsht aralashtirib tayyorlangan salat;

2.) umuman koʻkatlardan tayyorlangan gazak. Yana qiyoslang, uygʻur tilida: səy samsa – koʻk somsa; səyxana – sabzavot saqlanadigan ombor (xit. Say - toj. xona).

Jusay – xushboʻy, ovqatga soladigan va garnir tarzida isteʼmol qilinadigan koʻkat. Qiyoslang, uygʻur tilida jysəy – xushboʻy piyoz; Lagʻman – xamirni choʻzib yoki uzun ingichkaroq kesib tayyorlangan, yuziga qayla solib yoyiladigan xamir ovqat turi. Qiyoslang, uygʻur tilida ləḡmen – xitoycha lyanmyan, lyan – sovuq, myan – ugra, xamir. Buni ayrim manbalarda tungon ugrasi, goʻshtli ugra ham deyiladi.

Shiman – xamiri yupqa kesilgan lagʻmon. Qiyoslang, uygʻur tilida shimen, Xitoycha simyan (si – yuqa, myan – kesilgan xamir, ugra); manti – xamir orasiga goʻsht yoki qovoq solib, tugib parda pishirilgan ovqat. Uygʻur tilida manta, xitoycha mantou.xitoycha mantou.

Manpar – xamirni tasmaga oʻxshatib kesilib, soʻng uzib shoʻrvaga solib tayyorlanadigan xamirli ovqat turi. Qiyoslang, uygʻur tilida mənper, xitoycha manpeze.

Xoshan – xamir orasiga qiyma, qovoq, kartoshka solib, oʻrab yogʻda va baʼzan parda pishiriladigan ovqat turi. Uygʻur tilida xoshan, xitoycha xoshan. Buni bizda koʻpincha xonim deyiladi.

Yuto-yutoza – xamirni yoyib, yogʻ surtib voronka shakliga keltirib, parda pishiriladigan ovqat. Uygʻur tilida jutaza, xitoycha yutaszy (yu – yogʻ, ta – baland, minora).

Choy. Xitoycha sa, cha – choy. Qiyoslang, chafan (cha – choy, fan – uy, xona) –



choyxona.

Shoti – narvon. Bu soʻz xitoycha shatang soʻzidan olingan boʻlib, Fargʻona vodiysidagi deyarli barcha shevalarda shati, shoti, shoʻti kabi shakllarda keng qoʻllanadi.. aynan, fonetik oʻzgarishlar va kalkalash yoʻli bilan ishlatilib kelingan. Tay-tay – 1) bolalarning dastlabki qadam bosishi, yurish; shu yurish paytida aytiladigan soʻz: tay-tay, tay-tay qiling kabi. Qiyoslang, xitoy tilida taytay; uygʻur tilida t yt yletip mangʻuzmaq – bolalarni qoʻlidan ushlab yurgizmoq.

2) taytay soʻzi xitoy tilida (uygʻurlar tilida ham) xonim, beka maʼnolarida ham ishlatiladi.

Poyezd, vagon, vokzal, pochta, telegraf, konfet, adres, zavod, fabrika, mashina, veksel, bank, doktor, feldsher, gazeta, general, gubernator, fonar, sud, soldat, pristav, дума, печ, лампа, тарелка, картошка va sh. k.

Oʻzbek tili leksikasiga rus tilidan kirgan soʻzlarning aksariyati ot turkumiga kiruvchi soʻzlar va qisman nisbiy sifatlardan iborat boʻlgan. Yuqorida keltirilgan soʻzlar oʻzbek tilida aynan, fonetik oʻzgarishlar va kalkalash yoʻli orqali ishlatib kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. T.:Yoshlar nashriyot uyi. 2019
2. Yoriyev B. O'zbek tili tarixi. T. :Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006
3. <https://daryo.uz/2022/11/01>
4. Onlayn tibbiy lugʻat (Wayback Machine /2011-09-21/